

“OMMAVIY KUTUBXONA XIZMATLAR” FANIDAN

YaN SAVOLLAR

1. Axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish jarayonida qanday an’anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi?
2. Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishning an’anaviy texnologiyalari raqamli va innovatsion xizmat ko‘rsatish shakllaridan nima bilan farq qiladi?
3. Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlari (AKAT) va elektron kataloglar foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishda qanday qo‘llanilishi mumkin?
4. Foydalanuvchilarga statsionar bo‘lmagan (tashqi) kutubxona xizmati ko‘rsatishning qanday turlari mavjud?
5. Bibliobuslar va kutubxona faoliyatining boshqa mobil shakllari orqali xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
6. Olis aholi punktlarida axborot resurslaridan foydalanishni ta’minlashda bibliobuslar yoki biblio-dronlardan qanday foydalanish mumkin?
7. Kutubxona xizmati ko‘rsatishning statsionar bo‘lmagan shakllarining afzalliklari va cheklovlarini tahlil qiling.
8. Foydalanuvchilarga kutubxona xizmati ko‘rsatishning kasbiy etikasiga oid qanday asosiy tamoyillar mavjud?
9. Nima uchun etika normalariga rioya qilish kutubxonachi va foydalanuvchi o‘rtasidagi samarali hamkorlikning muhim sharti hisoblanadi?
10. Kutubxonachi turli toifadagi foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish jarayonida kasbiy etika normalarini qanday qo‘llashi lozim?
11. Axborot-kutubxona sohasi mutaxassisining axborot kompetentligi tushunchasi nimani o‘z ichiga oladi?
12. Nima uchun axborot kompetentligi kutubxonachining kasbiy faoliyatida muhim tarkibiy qism sanaladi?
13. Mutaxassis foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot qidirish ko‘nikmalaridan qanday foydalanishi mumkin?
14. Kutubxonachining axborot kompetentligi darajasi va ko‘rsatilayotgan axborot xizmatlari sifati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiling.
15. Jamiyatni raqamlashtirish sharoitida kutubxona mutaxassisining axborot savodxonligini doimiy ravishda oshirib borishi qanchalik muhim?
16. Kutubxona amaliyotida tarmoq (sohaviy) adabiyotlarini ommalashtirishning qanday turlari va shakllari qo‘llaniladi?
17. Kitobxonlik qiziqishini shakllantirishda kutubxona reklamasi va adabiyotlarni axborot orqali targ‘ib qilishning roli qanday?
18. Ixtisoslashtirilgan nashrlarni targ‘ib qilishda kitob ko‘rgazmalari, adabiyotlar sharhi va raqamli platformalardan qanday foydalanish mumkin?

19. Tarmoq adabiyotlarini targ'ib qilishda an'anaviy va raqamli shakllarning samaradorligini tahlil qiling.
20. An'anaviy va raqamli nashrlarga oid mualliflik huquqini qaysi xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar tartibga soladi?
21. Bosma va elektron resurslarni tarqatish sohasida mualliflik huquqini himoya qilishning asosiy tamoyillari nimadan iborat?
22. Kutubxona mutaxassislari foydalanuvchilarga elektron va bosma nashrlarni taqdim etishda xalqaro mualliflik huquqi normalarini qanday qo'llashlari mumkin?
23. Raqamli muhit sharoitida xalqaro qonunchilik mualliflik huquqlari himoyasini qanchalik samarali ta'minlamoqda?
24. Axborot-kutubxona xizmatida foydalanuvchilarning qanday toifalari ajratib ko'rsatiladi?
25. Bolalar, yoshlar, keksalar va imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga axborot xizmati ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
26. Kutubxonachi turli guruhdagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish shakllari va usullarini qanday moslashtirishi mumkin?
27. Axborot-kutubxona muassasalarida individual va ommaviy xizmat ko'rsatishning qanday shakllari qo'llaniladi?
28. Individual va ommaviy kutubxona xizmati ko'rsatish o'rtasidagi farq nimada?
29. Foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini qondirishda turli xizmat ko'rsatish shakllaridan qanday foydalanish mumkin?
30. Individual va ommaviy xizmat ko'rsatish shakllarining afzalliklari hamda kamchiliklarini tahlil qiling.
31. Individual va ommaviy xizmat ko'rsatishning o'zaro uyg'unligi kitobxonlik faolligini oshirishga qanchalik samarali ta'sir ko'rsatadi?
32. Zamonaviy kutubxona amaliyotida foydalanuvchilar bilan ishlashning qanday shakllari va turlari qo'llanilmoqda?
33. Kutubxona xizmatlari, dasturlari va loyihalari samaradorligini baholashning ahamiyati nimada?
34. Kutubxona tadbirlari natijalarini baholashda monitoring va tahlil usullaridan qanday foydalanish mumkin?
35. Foydalanuvchilar uchun yangi kutubxona xizmatlari va dasturlarini joriy etish natijadorligini baholang.
36. Axborot-kutubxona tadbirlarini moliyalashtirishning qanday asosiy manbalari mavjud?
37. Kutubxona loyihalarini rivojlantirishda davlat byudjeti, grantlar va dasturlarning roli qanday?

38. Kutubxona madaniy-axborot tadbirlarini amalga oshirishda grant dasturlaridan qanday foydalanishi mumkin?
39. Kutubxona loyihalarini moliyalashtirishning turli manbalari afzalliklari va cheklovlarini tahlil qiling.
40. Kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda byudjet va grant mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholang.
41. Kutubxona loyihalarini moliyalashtirishning qanday muqobil usullari mavjud?
42. Kutubxona faoliyatida fandraying, autsorsing va kroudfanding tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?
43. Madaniy loyihalarni amalga oshirishda kutubxona kroudfanding platformalaridan qanday foydalanishi mumkin?
44. Kutubxona tadbirlarini moliyalashtirishning muqobil usullari afzalliklari va xatarlarini (risklarini) tahlil qiling.
45. Kutubxonalar amaliyotida fandraying strategiyalarini joriy etish istiqbollarini baholang.
46. Kutubxonalarining jamoat, davlat va xususiy tashkilotlar bilan hamkorligining qanday shakllari mavjud?
47. Kutubxonalarining turli ijtimoiy institutlar bilan sheriklik aloqalari o'rnatishining ahamiyati nimada?
48. Kutubxona ta'lim va madaniyat muassasalari bilan qo'shma loyihalarni qanday tashkil etishi mumkin?
49. Tashkilotlararo hamkorlikning kutubxona xizmatlari rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qiling.
50. Axborot-kutubxona faoliyati imkoniyatlarini kengaytirishda sheriklik dasturlarining samaradorligini baholang.
51. Moddiy-texnik bazaning qaysi elementlari foydalanuvchilarga sifatli axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni ta'minlaydi?
52. Mebel, kutubxona makoni dizayni, apparat va dasturiy ta'minot iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni tashkil etishga qanday ta'sir qiladi?
53. Kutubxona xizmatlari samaradorligini oshirishda zamonaviy texnik vositalar va dasturiy mahsulotlardan qanday foydalanish mumkin?
54. Kutubxonaning texnik jihozlanish darajasi va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiling.
55. Zamonaviy kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishning ahamiyatini baholang.
56. Axborot-kutubxona sohasi mutaxassislarini tayyorlashda «kompetentlik yondashuvi» deganda nima tushuniladi?
57. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari o'rtasidagi farq nimadan iborat?

58. Bo'lajak kutubxona mutaxassislarini tayyorlashda kompetentlik yondashuvidan qanday foydalanish mumkin?
59. Kasbiy kompetensiyalarning foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish sifatiga ta'sirini tahlil qiling.
60. Yangi formatsiyadagi mutaxassislarni shakllantirishda kompetentlik yondashuvining samaradorligini baholang.
61. Zamonaviy axborot-kutubxona xizmatida qanday innovatsion metod va texnologiyalar qo'llanilmoqda?
62. Kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati nimada?
63. Foydalanuvchilarning axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda innovatsion texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?
64. Yangi texnologiyalarni joriy etishning kutubxona xizmatini tashkil etishga ta'sirini tahlil qiling.
65. Axborot-kutubxona amaliyotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholang.
66. Kutubxona dizayni va kutubxona makonini loyihalash tushunchasi nimani o'z ichiga oladi?
67. «Yashil kutubxona» kontsepsiyasining mohiyati nimada va u kutubxona amaliyotida qanday amalga oshiriladi?
68. Kutubxona makonini tashkil etishda ekologik va foydalanuvchiga yo'naltirilgan dizayn tamoyillari qanday qo'llanilishi mumkin?
69. Arxitektura va dizayn yechimlarining kutubxona foydalanuvchilari qulayligi va faolligiga ta'sirini tahlil qiling.
70. Kutubxona muhitining barqaror rivojlanishi uchun «yashil kutubxonalar» kontsepsiyasining ahamiyatini baholang.
71. Noan'anaviy (netraditsion) kutubxona xizmatlari va dasturlari deganda nima tushuniladi?
72. Kutubxona xizmati ko'rsatishning noan'anaviy shakllarining asosiy tavsiflari va xususiyatlari qanday?
73. Kutubxona yangi foydalanuvchilarni jalb qilish uchun xizmat ko'rsatishning noan'anaviy shakllaridan qanday foydalanishi mumkin?
74. Innovatsion kutubxona dasturlarining kitobxonlik faolligini oshirishga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qiling.
75. Zamonaviy kutubxona amaliyotida noan'anaviy xizmatlarni joriy etish samaradorligini baholang.
76. Zamonaviy kutubxonalarda kutubxona fondlari xavfsizligi va saqlanishini ta'minlashning qanday xorijiy usullari qo'llaniladi?

77. Kutubxona resurslarini himoya qilish va foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?
78. Axborot-kutubxona muassasalarida xavfsizlik tizimlarini joriy etish bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qiling.
79. Axborot-kutubxona faoliyatida raqamli transformatsiya jarayoni nimani anglatadi?
80. Turli turdagi hujjatlarni raqamlashtirish jarayonlari axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga qanday hissa qo'shadi?
81. Foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishda sun'iy intellekt texnologiyalari qanday qo'llanilishi mumkin?
82. Raqamlashtirish va sun'iy intellektning joriy etilishi kutubxona xizmatlarining transformatsiyasiga (o'zgarishiga) ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qiling.